

## **2-BO'LIM. QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR YECHIMI**

**UDK:598:636.2**

### **O'ZBEKISTON SHAROITIDA TUYAQUSHLARNI BOQISH VA ULARDAN MAHSULOT OLIHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Norjigitov R.S.*

*Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti "Oziq-ovqat xavfsizligi va texnologiyasi" kafedrasida assistenti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tuyaqushlarni yashash tarzi, ularni boqish va ulardan mahsulot olish haqida tushunchalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** *Afrika tuyaqushi, urg'ochi tuyaqush, ko'payish, jo'ja, tuyaqush tuxumi, tuyaqush pati, tuyaqush terisi, inkubator, harorat, ventilyatsiya, gradus, mahsulot, tuyaqush tana a'zolari, kipriklar, hususiyat.*

**Аннотация:** В этой статье рассказывается о том, как живут страусы, кормят их и получают от них продукты.

**Ключевые слова:** *африканский страус, самка страуса, размножение, птенец, страусиное яйцо, страусиное перо, кожа страуса, инкубатор, температура, вентиляция, степень, продукт, части тела страуса, реснички, признак.*

**Annotation.** This article provides insights into the way ostriches live, feed them, and get products from them.

**Key words:** *African ostrich, female ostrich, reproduction, chick, ostrich egg, ostrich feather, ostrich skin, incubator, temperature, ventilation, degree, product, ostrich body parts, cilia, trait.*

**Kirish:** XIX asrning 60-yillari atrofida Janubiy Afrikada tuyaqushlardan tijorat sifatida foydalanila boshlangan. 1869 yilda tuyaqush tuxumlari uchun birinchi inkubator yaratilgan va tuyaqushchilik foyda keltiruvchi mashg'ulotga aylandi. XX asr boshida soha gullab yashnadi.

Tuyaqushlarning O'zbekistonga kirib kelishiga juda ko'p yillar kerak bo'ldi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ayrim tadbirkor hamda qiziquvchi shaxslar tuyaqushlarni keltirib boqishga harakat qildilar ammo tanasi yirik bo'lishiga qaramay organizmi nozik bo'lgan qushlarni ko'paytira olmadilar. Lekin o'zining jozibasi hamda sifatli mahsulotlari odamlarning qiziqishini kuchaytirdi. O'zbekistonga 2013 yilda tuyaqushlarning birinchi partiyalari kirib kela boshladi. Shundan keyin O'zbekistonda ham tuyaqushlar boqila boshlandi [2]. Mamlakatimizda go'sht, sut, tuxum, baliq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi[3]. Tuyaqushchilikning aynan shu muammolarga yechim topishda ahamiyati katta bo'lib hisoblanadi. Tuyaqushlar inson tomonidan xonakilashtirilgan yirik parranda qushlaridir. Issiq afrika savannalarida paydo bo'lgan tuyaqushlar uzoq Yevropa xududlarigacha yetib borgan. Tuyaqushlarni parvarishi boshqa qushlarni boqishdan o'ziga xos jixatlari bilan ajralib turadi. Tuyaqush yaylovda o'zi o't qidirishni xush ko'radi. Shu bois, ularni keng dalada boqish maqsadga muvofiq. Tuyaqushlarinng yana bir muhim afzalliklardan biri uning hech bir a'zosi chiqitga chiqmaydi. Masalan, kipriklaridan ayollar uchun ulama kipriklar tayyorlanadi. Patlari sovuqni ham, isiqni ham o'tkazmaganligi bois ulardan qishgi ust-boshlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Ichidan chiqadigan moyidan tibbiyotda foydalaniladi.

Tuxumining po'chog'i esa tabiiy kalsiy hisoblanadi, bundan tashqari, undan har xil suvenerlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Tirnoqlari esa olmosga ishlov berishda ishlatiladi. Tuyaqush go'shti dunyo oziq-ovqat bozorida mazali va xolesterini kam, parxezbop mahsulot sifatida qadirlanadi. Ko'pchilik tuyaqush go'shtini tovuq go'shtiga o'xshash go'sht beradi va go'shti juda mazali hamda foydali[1].

**Metodlar va materiallar:** Tuyaqush fermalari ko'payishi bilan tuyaqush tuxumlariga bo'lgan qiziqish ham ortib bormoqda. Inson organizmi uchun tuyaqush tuxumlari tovuq tuxumlariga nisbatan foydaliroq bo'lishi aniqlangan. Bu tuxumlar bir donasidan butun oila uchun taom tayyorlash mumkin.

Sayyoramizdagi eng katta qush tuxumi yuqori ozuqaviy qiymatga ega. O'lchamlaridan kelib chiqib 1 dona tuyaqush tuxumi 20-30 dona tovuq tuxumining o'rnini bosa oladi. O'rtacha qattqlikdagi tuyaqush tuxumining kalloriyalik darajasi 2000 kkal gacha yetadi. Tuyaqush tuxumlari A va E vitaminlari, karotinoid, B guruhi vitaminlari (B, B12), aminokilotalarga boy mahsulot hisoblanadi.

**Natijalar va ularning tahlili:** Tongda tuyaqush tuxumidan tayyorlangan bir dona omlet tanavvul qilgan kishi bir sutkalik oqsil miqdoriga ega bo'ladi va ancha paytgacha ochlikni his qilmaydi. Bu turdagi tuxumlarda xolesterin miqdori kamligi sababli muntazam tanavvul qilish semirib ketishga asos bo'lmaydi.

Tuyaqush tuxumlarining foydali jihatlari:

- Yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi;
- Sochlar, tirnoqlar va teri holatini yaxshilaydi;
- Ko'z ravshanligini oshiradi;
- Muskullar chiqarish uchun vazn to'plashga yordam beradi.

Lekin tuyaqush tuxumlarini iste'mol qilishning salbiy tomonlari ham mavjud. Parranda tuxumlariga allergiyasi bo'lgan kishiga tuyaqush tuxumi berib bo'lmaydi. Agar tuyaqushlar fermasida parrandalarni saqlash qoidalariga rioya etilmasa, tuxumlarni iste'mol qilib, salmonella bilan zaharlanib qolish hech gap emas. Tuxumlarni tanavvul qilishdan oldin ularni sodali suvda yaxshilab tozalab yuvish zarur. So'ng tuxumlarni chaqib, ma'lum vaqt davomida yuqori haroratda pishirib olish maqsadga muvofiq. Terisi pishiqligi va egiluvchanligi bo'yicha timsoh terisidan keyin turadi. Patidan karnaval liboslari yoki turli kiyimlar tayyorlanadi.

Sigir o'rnida tuyaqushning urg'ochisini ko'rib chiqadigan bo'lsak bu holatda, 1 bosh urg'ochi tuyaqushdan yil davomida 40 boshdan kam bo'lmagan yosh tuyaqushlarni olish, ko'paytirish va o'stirish mumkin, agar yil davomida ko'payish uchun sharoitlar yaxshi yaratilgan bo'lsa, yosh tuyaqushlar ancha ko'p ham bo'lishi mumkin, ayrim hollarda 2 barobar (1 yilda 80 boshgacha) ko'payish imkoni bo'ladi. Tuyaqush tuxumini inkubatsiya davri 42 kunni tashkil qiladi, tuyaqush jo'jalari bo'rdoqiga boqilganda, katta yoshdagi ona tuyaqush vazniga 1 yilda yetib oladi. Jami 1 bosh urg'ochi tuyaqushdan har yili 2 tonna atrofida qimmatli parhez go'shti, 50 m<sup>2</sup> atrofida yuqori sifatli qimmatbaho teri va 36 kg. ajoyib patlar olish mumkin. Tuyaqush 40 yil davomida ko'payish xususiyatini yo'qotmasligini inobatga olsak, bu davr ichida 1 bosh urg'ochi tuyaqushdan 70 tonna parhez go'sht, 2 ming m<sup>2</sup> teri va tahminan 1,5 ming kg. tuyaqush patlarini olishimiz mumkin.

Undan tashqari tuyaqush tirik vazniga nisbatan go'sht chiqish hajmi, sigir yoki boshqa qishloq xo'jalik hayvonlariga nisbatan ancha yuqori. Shunday qilib, tuyaqushchilik sohasi boshqa barcha parrandachilik sohaslaridan afzalligi bilan ajralib turadi.

**Xulosa:** Tuyaqushchilik sohasi ko'p foyda keltiradigan va kelajagi bor yo'nalish hisoblanadi. Gap shundaki, mahsulotlarining miqdori va sifati barcha qishloq xo'jalik parrandalari mahsulotlaridan bir necha barobar yuqori turadi. Har bir tuyaqush so'yilganda 1 sentnergacha (100 kg) juda kam miqdorda xolesterini mavjud bo'lgan tansiq (delikates) go'sht, 2 kg. atrofida qimmatbaho patlar va 2 m<sup>2</sup> yengil sanoatda katta talabga ega bo'lgan sifatli teri beradi. Boqish uchun ketgan sarf – harajatlar faqat terini sotishdan tushgan daromad hisobiga qoplab ketadi, qolgan boshqa mahsulotlari toza foyda hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. A.T.Isabayev., H.I.Normuhamedov. “Tuyaqushlarni parvarishlash bo'yicha tavsiyalar” O'zbekiston Respublikasi “Parrandasanoat” uyushmasi. T.: “Muharir nashriyoti”, 2012-yil.
2. R.S.Norjigitov, I.Jalilov, A.Axtamova - “O'zbekiston sharoitida tuyaqushlarni parvarishlashning o'ziga xos xususiyatlari”. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish istiqbollari: zamonaviy amaliyot va innovatsion texnologiyalar - respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami II qism 21-22-may, 2020-yil 96-97 betlar.
3. F.Rayimova, A.Quchqorov, R.Norjigitov, J.Khujamov - Innovative ways to increase milk productivity by imported golshtin cows - «Ветеринарная медицина В ХХИ веки: Роль биотехнологий и цифровых технологий» Материалы Международной научно-проактической конференции судентов, магистрантов и молодых ученых. г Витебск, г Самарканд, 2 февраля 2021 г. 227-bet.